

UDK: 619:636.5

**JO'JALAR TEZAK NAMUNALARIDAN EYMERIYA OOSISTLARINI
AJRATIB OLISH**

Xudjamshukurov A.N.

Asanov A.U.

Hazratqulov Z.G‘.

**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar
universiteti**

Annotasiya. Jo‘ja eymeriozini o‘rganishda O‘D₅₀₋₇₀ dozalarini aniqlash uchun jo‘jalarni sun‘iy zararlantirishda tovuqlar axlatidan eymeriya qo‘zg‘atuvchilarini (oosistlarini) ajratib olishusuli va undan titrlangan eymeriyalar kulturasini tayyorlash va oosistlar kulturasini o‘sirishni bo‘yicha maqolada bayon etilgan.

Mavzuning dolzarbligi. Respublikamizda parrandachilik sohasida amalga oshirilayotgan tub islohotlar natijasida yildan-yilga parrandalar bosh soni ko‘payib, mahsulorligi oshib bormoqda. Bu borada jo‘jalarni asrash va parvarishlash, kasalliklarni samarali oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va takomillashtirishga qaratilgan keng qamrovli amaliy ishlar bajarilmoqda. Parrandachilik xo‘jaliklari sharoitida parrandalarni asrash va saqlash sharoitlarining buzilishi, mahsulorlik va mahsulot sifatining pasayishi, inkubatsion tuxumlarning yaroqsiz bo‘lishi, mahsulot yetishtirish uchun xarajatlarning ko‘payishi hisobiga katta iqtisodiy zarar yetkazmoqda.

Bir kunlik jo‘jalarni parvarishlash uchun bajariladigan tadbirlar parrandachilikdagi dolzab masalalardan biri hisoblanadi.

Keying yillarda Prezidentimizning bir qator farmon va qarorlari jumladan, 2022-yil 28- yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni, 2018-yil 13-noyabrdagi PQ – 4015-son “Parrandachilikni yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2021-yil 14-iyundagi PQ-5146-son “Parrandachilikni rivojlantirish va tarmoq oziqa bazasini mustahkamlashga qaratilgan qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2022-yil 24-yanvardagi PQ-100-son “Parrandachilik tarmog‘ini davlat tomonidan qo‘llab quvvatlashga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, va 2022-yil 31-martdagagi PQ-187-son “Veterinariya va chorvachilik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirishning ijrosiga yo‘naltiriladi.

Yuqoridagi qarorlar aholi va shaxsiy xonadonlarda parrandachilikni tashkil etish, parrandachilik bilan shug‘ullanuvchilarini qo‘llab quvvatlash tizimini joriy qilish kabi qator tadbirlarni amalga oshirishni belgilab beradi.

Bugun dunyodagi kabi mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda parrandachilikda parxez parranda go‘shti bilan aholini ta’minlashda sohaning beqiyos o‘rnii mavjud.

Parrandalarni saqlash va oziqlantirishning resurs tejamkor texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy qilish hamda mahsulot birligiga sarf xarajatlarni kamaytirish kabi vazifalarni yuklaydi.

Parrandachilikni rivojlantirishning eng muhim omillaridan biri yosh jo'jalarni ilg'or texnologiyalar asosida kasallantirmasdan parvarishlash va saqlash xisoblanib, parrandalarning o'sish, rivojlanishi va ochirilgan jo'jalarni imkoniyatlar darajasida to'la qimmatli oziqalar bilan oziqlantirish kabi resurs tejamkor texnologiyalar asosida saqlashga bog'liq.

Parrandachilikni rivojlantirishda parazitar kasalliklarning muammosi ularga ertachi aniq diagnoz qo'yishda muhim aniq vazifalar belgilab, katta ma'suliyat yuklaydi.

Materiallar va uslublar. Samarqand viloyatining kichik tovuqchilik xo'jaliklarida almashinmaydigan to'shamalar ustida asralgan 30-35 kunlik jo'jalar tezak (axlat) namunalaridan laboratoriya sharoitida eymeriya oosistlarini ajratishda doim Darling usuli bo'yicha tekshirishda tezakdan oosistlar ajratib olinadi. Darling usuli bo'yicha tezak namunalari tekshirilib, eymeriya oosistlari borligi, oosistlar zichligi ekanligi kuzatildi. Bundan tashqari yana bir usulda eymeriya oosistlarini ajratib olish texnikasini va oosistlar kulturasini o'stirishni keltirib o'tamiz. Bu M.V.Kr'lov (1969) metodikasi bo'lib, ya'ni bunda xam stakanchalarga axlat olindi, ustiga kaliy bixromat tuzining 2 % li suvdagi eritmasidan ozroq qo'yildi va yaxshilab aralashtirildi. Keyin 1:20 nisbatda 2 % li kaliy bixromat tuzining eritmasi solindi. Doka yoki simli to'r suzgichdan o'tkazildi va suyuq aralashma sentrafuga probirkalariga quyilib, 2500 aylana tezlikda 5 minut davomida sentrafuga qilindi. Probirkalardagi suyuqlikning ustki qismi boshqa idishga to'kilib, cho'kmasi qoldirilib, cho'kmaga osh tuzining to'yingan eritmasidan solindi va keyin yaxshilab aralashtirildi. Sentrafugada 10 minut davomida 1500 aylana tezlikda qayta sentrafuga qilinadi. Probirkalar ustki qismi to'kib tashlanib, tagidagi cho'kma qismi boshqa idishga yig'ib olinib ustiga toza suv (1:10) nisbatda qo'yilib, 1-2 kun saqlanadi.

Tovuq axlatidan eymeriya oosistlarini ajratish va kultura tayyorlash

Jadval №1

I - jarayon	Tovuq axlatini kaliy bixromatning suvdagi 2% li eritmasidan 1: 20 nisbatda quyilib yaxshilab aralashtirib suzgichdan o'tkazish
II-jarayon	Aralashmani sentrafuga qilish 2 marta 1. kaliy bixromatning 2 % foizli suvli eritmasi 2. natriy xlorning to'yingan eritmasi
III-jarayon	Sentrafuga qilganda ajratilgan cho'kmani tindirish. (1- 2 sutka)
IV-jarayon	Ajratilgan oosistlarni termostatda qulay sharoitdagi sporulyasiya jarayoni

Tindirilgan idishning ustki qismini, cho'kma loyqalatilmasdan so'rg'ich nay orqali so'rib olindi. Cho'kmaga kaliy bixromat tuzining 2 % li suvdagi eritmasi solinib, termostatga qo'yildi. Oosistlar termostatda $+25^{\circ}$ $+27^{\circ}\text{C}$ da saqlandi va sporulyasiya bo'lish jarayonini tezlashtirish uchun kompressorda havo haydalib turildi. Oosistadagi sporulyasiya jarayoni har kuni kuzatilib borildi va termostatda qulay sharoitda o'z rivojlanishini davom ettirdi. Uning tarkibidagi tuzilmalari zichlashib, shar shakliga kirib markazga to'planishdi. Undan keyin 2 - 3 - kunlari

ushbu sharchalar har biri 4 tadan bo'laklarga, sporoblastlarga bo'linib, 4 ta sporaga aylandi. Xususiy zich parda bilan o'ralgan sporosistalar har biri 2 tadan uzunchoq, o'roqsimon shakldagi sporazoitlar hosil qildi.

Xulosa. Termmostatda qulay sharoitda oosistlar 72 soat davomida rivojlanib, sporulyasiya jarayoni o'z nihoyasiga yetkazdi. Tajribalar o'tkazish uchun jo'jalarga 14 kunligida tayyorlangan kulturani yuqtirish va O'D₅₀₋₇₀ dozasini aniqlash uchun tavsiya etildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Khujamshukurov, A. N. (2021). Improvement Of Chemoprophylaxis Of Chicken Eimeriosis. *NVEO-NATURAL VOLATILES & ESSENTIAL OILS Journal/NVEO*, 884-887.
2. Xudjamshukurov, A. N., Berdiyev, X. R., & Chorshambiyev, A. B. (2022). JO 'JALAR PULLOROZINI TABIIY REZISTENTLIKNING PASAYISHI EVAZIGA NAMOYON BO 'LISHI. *AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI*, 487-489.
3. Rustamov, B. S., & Xudjamshukurov, A. N. (2023). KURKALAR GISTOMONOZINING TARQALISHI VA DAVOLASH TADBIRLARI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(4), 1041-1045.
4. Xudjamshukurov, A. N., & Asanov, A. U. (2024). IMPROVEMENT OF CHEMOPREVENTION OF EIMERIOSIS IN CHICKENS. *Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education* (2994-9521), 2(3), 142-145.
5. Abduraimov, A. A., Rustamov, B. S., & Xudjamshukurov, A. N. (2023). Kurkalar gistomonozini tarqalishi va davolashda metronidazol va furazolidon preparatlarining samaradorligi. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(4), 1046-1051.
6. Davlatov, R., Ruzikulov, N., & Xudjamshukurov, A. N. (2018). Comparative efficacy of anticoccidic preparations in experimental eimeriosis in fowl. *International Journal of Applied Research2018*, 4(7), 319-321.
7. Davlatov, R. B., & Xudjamshukurov, A. N. (2018). Eksperimental tovuq eymeriozida sinovdan o'tkazilgan preparatlar samaradorligi. *Toshkent davlat agrar universiteti "O'zbekiston respublikasi qishloq xo'jaligi sohasi samaradorligini oshirishda ilmiy tadqiqot institutlari va oliv ta'lim muassasalarining rolini oshirishning dolzab masalalari" mavzusidagi ilmiy amaliy konferensiya materiallari to'plami/2-kitob*, 22-23.
8. Khudjamshukurov, A. N., Allazov, A. S., Klichov, O. I., Asanov, A. U., & Rakhmatova, E. (2024). Efficacy of Eimeriostat Preparations In Experimental Eimeria of Chickens. *Valeology: International Journal of Medical Anthropology and Bioethics* (2995-4924), 2(5), 204-207.
9. Davlatov, R. (2013). JO'JALAR PULLOROZINI DAVOLASHDA YANGI ANTIBIOTIKLARNI QO'LLASHNING NATIJALARI.

10. Davlatov, R. B., & Xudjamshukurov, A. N. (2020). Jo 'ja eksperimental eymeriozida qo 'llanilgan eymeriostatlar. In *International scientific-practical online conference on "Emergency management and public health research in asia.*
11. Davlatov, R. B., Xudjamshukurov, A. N., & Rustasov, B. (2017). Parrandalar kasalliklari. o 'quv qo 'llanma, Samarkand-2018.
12. Xudjamshukurov, A. N. (2021). Improvement Of Chemoprophylaxis Of chiken Eimeiosis. *Nat. Volatiles & Essent. Oils*, 8(6), 884-887.
13. Xudjamshukurov, A. N., & Sh, X. J. (2021). Effests of drugs on blood indicators in mixing chicken eimeriosis and pullorosis. *ACADEMICIA An International Multidisciplinary Research Journal//https://saarj. com, Impact Factor: SJIF*, 7.
14. Abdurakimovich, Y. T., Nurmamatovich, K. A., & Kakhramonova, S. S. (2022). Crisis of the Age of Maturity, The Formation of The Image of "I". *Global Scientific Review*, 9, 21-25.
15. Salimov, I., Salimova, D., Salimov, H., Xudjamshukurov, A., & Qambarov, A. (2024). Specific prevention of emphysematous carbuncle of cattle and sheep. In *BIO Web of Conferences* (Vol. 95, p. 01036). EDP Sciences.
16. Bakirov, B., Daminov, A. S., Ro'ziqulov, N. B., Toylaqov, T. I., & Saydaliyev, D. (2019). Qurbonov Sh. Boboyev OR, Xo 'djamshukurov A. Hayvonlar kasalliklari. Ma'lumotnoma. Ikkinch nashri. Samarkand, 344-347.
17. Худжамшукуров, А. Н., & Давлетов, Р. Б. (2019). РАСПРОСТРАНЕНИЕ ЭЙМЕРИОЗА КУР В УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА И ИСПЫТАНИЕ ЭЙМЕРИОСТАТИКОВ ДЛЯ ЕГО ПРОФИЛАКТИКИ. In *СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ, ТРАДИЦИИ И ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В РАЗВИТИИ АПК* (pp. 167-171).
18. Nurmamatovich, K. A., & Ogli, K. S. I. (2021). Effects of drugs on blood indicators in mixing chicken eimeriosis and pullorosis. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(5), 615-617.